

Qishloq xo'jaligi vazirligining korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi 2023 yil III–choragi bo'yicha

HISOBOT

I. Umumiy ma'lumot

2023-yil III-choragida korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan jami 13 ta murojaatlarning 4 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, 1 tasi Inson huquqlari bo'yicha vakil (Ombudsman), 1 tasi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, 1 tasi boshqa tashkilotlar orqali hamda 6 tasi Qishloq xo'jaligi vazirligiga to'g'ridan-to'g'ri ravishda kelib tushgan.

Shundan, 4 tasi Toshkent viloyatiga, 3 tasi Navoiy viloyatiga, 2 tasi Toshkent shaxriga, har biriga 1 tadan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo viloyati, Farg'ona viloyati va Samarqand viloyatiga 1 tadan to'g'ri keladi.

II. Ko'rib chiqish natijalari

Qishloq xo'jaligi vazirligiga korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlarning ko'rib chiqish natijalari bilan, 10 ta holatda murojaatchilarga tushuntirishlar berildi, 3 ta xolatda murojaat qanoatlantirilib, ma'sullarga nisbatan tegishli choralar ko'rildi.

III. Minimallashtirish choralari

Korrupsiya faktlariga doir kelib tushgan murojaatlardan kelib chiqib korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqiladi, hududiy bo'linmalar va tizim tashkilotlariga ijro uchun yuboriladi.